



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

2026-YIL / IYUL / 7-SON,  
I-QISM



ISSN

INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

### Bosh muharrir o'rinbosari:

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### Muharrir:

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.  
I-qism*

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyea Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

#### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

#### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy  
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

#### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va  
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi  
336/3-sonli qarori bilan  
ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

|                                                                                                                                                                                         |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| MHXS (IFRS) ASOSIDA MOLIVAVIY HISOBOT TUZISHNING KORXONA RENTABELLIGI<br>VA TO'LOVGA QOBILIYATLILIGINI TAHLIL QILISHDAGI O'RNI.....                                                     | 12  |
| <b>Urakova Maxsad Xakimovna</b>                                                                                                                                                         |     |
| QAYTA TIKLANMAYDIGAN RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA<br>MOLIVAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....                                                                                      | 18  |
| <b>Yusupova Jamila Karamatdinovna</b>                                                                                                                                                   |     |
| COMPARATIVE ANALYSIS OF DIGITAL FINANCIAL TECHNOLOGIES FOR CREDIT<br>RISK PREDICTION AND MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS BASED ON ARTIFICIAL<br>INTELLIGENCE AND BIG DATA ANALYTICS..... | 21  |
| <b>Kholdorov Sardor Umarovich</b>                                                                                                                                                       |     |
| O'ZBEKISTONDA AGROINVESTITSIYALARNI MOLIVALASHTIRISH MEXANIZMLARINI<br>TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....                                                                                  | 28  |
| <b>Yusupov Komaliddin Baxtiyor o'g'li</b>                                                                                                                                               |     |
| O'ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR UCHUN<br>ICHKI TURISTIK MAHSULOTLAR TAHLILI.....                                                                                             | 33  |
| <b>Zoxidov Firuz Faxritdinovich</b>                                                                                                                                                     |     |
| СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ ПИЩЕВОЙ<br>ПРОМЫШЛЕННОСТИ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА.....                                                                              | 38  |
| <b>Эргашбаева Нилуфар Мухаммадсайфуллаевна</b>                                                                                                                                          |     |
| MUSTAQIL TURISTLAR OQIMINI OSHIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNI<br>O'ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRISH IMKONIYATLARI.....                                                          | 42  |
| <b>Muzaffarov Akmal Axmadovich</b>                                                                                                                                                      |     |
| МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО<br>ИНТЕЛЛЕКТА И ЧАТ-БОТОВ В СИСТЕМЕ РЕГУЛИРОВАНИЯ ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ .....                                                   | 49  |
| <b>Ирматова Азиза Бахрамовна</b>                                                                                                                                                        |     |
| OROL BO'YI MINTAQASIDA YASHIL IQTISODIYOT ASOSIDA AGROTURIZMNI<br>RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA) .....                                            | 56  |
| <b>Akramova Feruza</b>                                                                                                                                                                  |     |
| RECENT MEDICAL TOURISM RESEARCH IN THE WEB OF SCIENCE CORE COLLECTION .....                                                                                                             | 68  |
| <b>Hao Xiaohui</b>                                                                                                                                                                      |     |
| HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASHDA ILG'OR XORIJIY<br>DAVLATLAR TAJRIBASIDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI .....                                             | 76  |
| <b>Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li</b>                                                                                                                                                 |     |
| TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA<br>OSHIRISHNING ZAMONAVIY IQTISODIY MEXANIZMLARI .....                                                                   | 83  |
| <b>Inobatov Abror Boshlarovich</b>                                                                                                                                                      |     |
| КОММУНАЛЬНАЯ ИНФРАСТРУКТУРА И МЛАДЕНЧЕСКАЯ СМЕРТНОСТЬ:<br>ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПО РЕГИОНАМ УЗБЕКИСТАНА ЗА 2012–2024 ГОДЫ.....                                                            | 92  |
| <b>Мамбетсапаев Курбанияз Айниязович</b>                                                                                                                                                |     |
| АНАЛИЗ ФАКТОРОВ ФОРМИРОВАНИЯ КОНКУРЕНТНОГО ПОТЕНЦИАЛА<br>ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ .....                                                                                         | 97  |
| <b>Ташмухамедова Карима Саматовна</b>                                                                                                                                                   |     |
| СУТЬ УПРАВЛЕНИЯ СТРАТЕГИЕЙ ПРЕДПРИЯТИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ .....                                                                                                              | 104 |
| <b>Тарават Абдул Салам</b>                                                                                                                                                              |     |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTITSIYALAR<br>MANBALARI RIVOJLANISHINING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI.....                                                      | 112 |
| <b>Ibadullayev Dilshad Ibragimovich</b>                                                                                                                                                 |     |



|                                                                                                                                                                             |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| BARQAROR SHAHARSOZLIKNI TA'MINLASHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING<br>EKOLOGIK VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....                                                    | 117 |
| <b>Permatov Ilxomjon Juraboyevich</b>                                                                                                                                       |     |
| O'ZBEKISTONDA BARQAROR SHAHARSOZLIKNI HUQUQIY<br>ASOSLARINI RIVOJLANTIRISH .....                                                                                            | 121 |
| <b>Inoyatova Gulnoz Kadamovna</b>                                                                                                                                           |     |
| BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK OMILLARNING BINOLAR<br>YEMIRILISHIGA TA'SIRINI KOMPLEKS BAHOLASH VA ULARNI KAMAYTIRISH<br>USULLARI (TOSHKENT SHAHRI MISOLIDA)..... | 125 |
| <b>Turabova Shodiya Anvarjon qizi</b>                                                                                                                                       |     |
| MHXSDA TUSHUM VA MOLIVAVIY INSTRUMENTLAR BO'YICHA PUL<br>MABLAG'LARI OQIMINI HISOBGA OLISH .....                                                                            | 132 |
| <b>Eshonqulov Akmal Qudratovich</b>                                                                                                                                         |     |
| BOJXONA IMTIYOZLARINING DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARIGA TA'SIRINI<br>BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....                                                         | 138 |
| <b>Latipov Jahongir Shavkatovich</b>                                                                                                                                        |     |
| O'ZBEKISTONDA XUSUSIY TA'LIM TIZIMIDA KADRLAR<br>NOMUTANOSIBLIGI TENDENSIYALARI .....                                                                                       | 144 |
| <b>Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li</b>                                                                                                                               |     |
| EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR<br>VA INNOVATSION USULLARNING SAMARADORLIGI.....                                                                | 150 |
| <b>Usmanova Gulida Valiyevna</b>                                                                                                                                            |     |
| BUXORO VILOYATIDAGI KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI TARMOQLARARO<br>IQTISODIY SAMADORLIGI EKONOMETRIK TAHLILI .....                                                      | 156 |
| <b>Nazarov Nazar G'ulom o'g'li</b>                                                                                                                                          |     |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KO'CHMAS MULK BOZORIGA TA'SIR ETUVCHI<br>OMILLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI .....                                                       | 163 |
| <b>Sadikova Dildora Abdulla qizi</b>                                                                                                                                        |     |
| MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH EKOTIZIMINING<br>FUNKSIONAL BOG'LIQLIGI.....                                                                                     | 167 |
| <b>Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich</b>                                                                                                                                     |     |
| СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ<br>УПРАВЛЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫМИ ФИНАНСОВЫМИ ОПЕРАЦИЯМИ .....                                                                      | 172 |
| <b>Исмоилова Жасмина Ильхом кизи</b>                                                                                                                                        |     |
| SANOAT KLASSTERLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INNOVATSION<br>FAOLIYATGA TA'SIRI .....                                                                                   | 178 |
| <b>Mamadaliyev Anazxon Ziyodillayevich</b>                                                                                                                                  |     |
| XIZMATLAR SOHASIDA KICHIK BIZNES KORXONALARINI INNOVATSION<br>RIVOJLANTIRISHNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI .....                                                         | 183 |
| <b>Ulmasova Oygul Baxtiyorovna</b>                                                                                                                                          |     |
| BIOLOGIK RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA<br>INNOVATSION BOSHQARUV USULLARI.....                                                                                         | 188 |
| <b>Babadjanov Akmal Shuxratovich</b>                                                                                                                                        |     |
| ZAMONAVIY JAMIYATDA AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI<br>YUKSALTIRISH MEXANIZMLARI.....                                                                                       | 193 |
| <b>Xudoyberdiyev Norbek Komiljon o'g'li</b>                                                                                                                                 |     |
| O'ZBEKISTON KONTEKSTI: IQLIM O'ZGARISHI, OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI<br>VA MOSLASHTIRISH SIYOSATLARI .....                                                                       | 198 |
| <b>Haydarov Ibrohimxon Abbosxon o'g'li</b>                                                                                                                                  |     |
| TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI VA BOJXONA NAZORATINI BOSHQARISHNING<br>NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....                                                                    | 202 |
| <b>Kilichov Nazar Bafoevich</b>                                                                                                                                             |     |



|                                                                                                                                                                                                                   |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| TA'LIM XIZMATLARI VA ULARNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI .....                                                                                                                                                    | 208 |
| <b>Yusupova I.R.</b>                                                                                                                                                                                              |     |
| OROLBO'YI HUDUDLARINING IJTIMOIIYIQTISODIY SALOHİYATINI KOMPLEKS<br>BAHOLASH VA USTUVOR RIVOJLANISH YO'NALISHLARI .....                                                                                           | 212 |
| <b>Dosnazarov Kallibek Kalbayevich</b>                                                                                                                                                                            |     |
| ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ ПРЕДПРИЯТИЙ<br>НА ФОРМИРОВАНИЕ ДОХОДОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО БЮДЖЕТА .....                                                                                                       | 222 |
| <b>Айтмуратов Кутлымурат Жалгасович</b>                                                                                                                                                                           |     |
| DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALAR UCHUN KORPORATIV BOSHQARUV BO'YICHA IQTISODIY<br>HAMKORLIK VA TARAQQIYOT TASHKILOTI (IHTT)NING YETAKCHI TAMOIYILLARINI<br>O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA JORIY ETISH YO'NALISHLARI ..... | 227 |
| <b>Jumadullayeva Durdona Shuxrat qizi</b>                                                                                                                                                                         |     |
| TURIZM SOHASIDA KLASTERNI SHAKLLANTIRISH ASOSIDA AHOLI<br>BANDLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....                                                                                                                  | 233 |
| <b>Abdurayimov O'ktam Abdug'ani o'g'li</b>                                                                                                                                                                        |     |
| EKOLOGIYAGA OID HUQUQBUZARLIKLAR TARKIBI .....                                                                                                                                                                    | 240 |
| <b>Majidova Shaxnoza Rustam qizi</b>                                                                                                                                                                              |     |



# EKOLOGIYAGA OID HUQUQBUZARLIKLAR TARKIBI

**Majidova Shaxnoza Rustam qizi**  
Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini  
o'rganish universiteti magistratura 1-bosqich talabasi

**Ilmiy rahbar: y.f.f.d., PhD Oybek Kamilov**  
Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti  
"Ekologik fanlar va barqaror rivojlantirish" kafedrasida katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston hududida ekologik huquqbuzarliklar tarkibini tasniflashning turli yondashuvlari ko'rib chiqiladi. Bugungi kunda ekologik xavfsizlikni ta'minlash aholi salomatligini ta'minlash nuqtai nazaridan dolzarb masalalardan biri bo'lib, ekologik huquqbuzarliklarga qarshi kurash mexanizmlarini shakllantirishda ekologiyaga oid huquqbuzarliklar tarkibini tasniflash muhim hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** ekologik huquqbuzarlik, ekologik huquqbuzarlikning tarkibi, ekologik huquqbuzarlikning tasnifi, ekologik xavfsizlik, qonunchilik, tartibga solinishi.

**Abstract:** This article examines various approaches to classifying the elements of environmental offenses within the territory of Uzbekistan. Today, ensuring environmental safety is one of the pressing issues from the standpoint of safeguarding public health, and classifying the elements of environmental offenses is essential for developing mechanisms to combat them.

**Keywords:** environmental offense, elements of environmental offense, classification of environmental offenses, environmental safety, legislation, legal regulation.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются различные подходы к классификации состава экологических правонарушений на территории Узбекистана. На сегодняшний день обеспечение экологической безопасности является одним из актуальных вопросов с точки зрения охраны здоровья населения, и классификация состава экологических правонарушений имеет важное значение при формировании механизмов борьбы с экологическими правонарушениями.

**Ключевые слова:** экологическое правонарушение, состав экологического правонарушения, классификация экологических правонарушений, экологическая безопасность, законодательство, правовое регулирование.

## KIRISH

Bugungi kunda ekologik xavfsizlikni ta'minlash dunyo hamjamiyatida eng dolzarb masalalardan biri bo'lib, atrof-muhitning ifloslanishi, havoga zararli chiqindilarning chiqarilishi va natijada atmosfera havosining zaharlanishi, daraxtlar sonining keskin kamayishi hamda boshqa omillar inson sog'ligiga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi kasalliklarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Shuning uchun mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish, atrof-muhitni va tabiiy resurslarni muhofaza qilish, ularni saqlab qolish, ekologik xavflarning oldini olish bo'yicha aniq mexanizmlarni belgilashni talab etmoqda. Ekologik xavfsizlikni ta'minlashning eng muhim mexanizmi bu davlat tomonidan ekologik huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun javobgarlik institutini joriy etilishi hisoblanadi. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasida davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishi belgilangan [1].

Shu nuqtai nazardan, ekologik huquqbuzarliklarni atrof, tabiiy muhitga hamda inson salomatligiga salbiy ta'siri darajasidan kelib chiqib tasniflash, ularga huquqiy maqom berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ekologik huquqbuzarliklarni bir nechta toifalarga bo'lish mumkin. Rus olimi D. Pakalovning fikricha, ekologik huquqbuzarliklarni zarar yetkazish usuliga ko'ra besh guruhga bo'lish mumkin: tabiiy muhitni ifloslantirish; tabiiy



resurslardan noo'rin foydalanish; tabiiy obyektlarni buzish, yo'q qilish, shikastlash; tabiiy resurslarni tugatish; tabiiy muhitni vayron qilish, uning ekologik aloqalarini buzish [2].

Hozirgi vaqtda ekologik tuzdagi qonunbuzilishi holatlarining tarqalishi bilan bog'liq aniq ma'lumot yo'q. Ekologik nazoratni amalga oshirishga mas'ul bo'lgan idoralarda mavjud ma'lumotlarga asosan o'tgan 2025-yilda ekologiya sohasida 59 mingdan ortiq qonun buzilish holatlari aniqlanganligi inobatga olinsa, bizda bu sohada qonun buzilishi holatlari keng tarqalganligidan dalolat beradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ekologiya va atrof-muhit huquqiga oid adabiyotlarda ekologik huquqbuzarlik atamasining bir nechta ta'rifi qo'llaniladi.

Rus olimi M.M. Brinchuk fikricha, ekologik huquqbuzarlikni huquqiy layoqatga ega subyekt tomonidan sodir etilgan, atrof-muhitga zarar yetkazadigan, bunday zarar yetkazishning real xavfini tug'diradigan yoki ekologik huquq subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini buzadigan noqonuniy va odatda aybli harakat (yoki harakatsizlik) sifatida ta'riflash mumkin [3].

A.P. Anisimov ekologik huquqbuzarlikning quyidagi ta'rifini taklif qiladi: Rossiya Federatsiyasi va uning tarkibiy tuzilmalarining ekologik huquqiy normalari bilan taqiqlangan, yuridik javobgarlik tahdidi ostida bo'lgan, fuqarolarning qulay atrof-muhitdan foydalanish huquqini buzadigan, shu jumladan tabiiy muhitga (yoki uning ayrim elementlariga) zarar yetkazadigan yoki bunday zararining real xavfini tug'diradigan xatti-harakatlar [4].

J.T. Xolmo'minovning fikriga ko'ra, ekologiya sohasidagi huquqbuzarlik – aybdorning qonunga xilof xatti-harakati yoki harakatsizligi oqibatida O'zbekiston Respublikasining ekologik tizimiga yetkazilgan zarar, ekologik sohani mustahkamlash yoki rivojlantirishga tajovuz qilish, ekologik talablarni o'z vaqtida amalga oshirishga putur yetkazish hamda ekologiya sohasidagi qonun va talablarni buzishda namoyon bo'ladi [5].

O'zbekiston qonunchiligida ekologik huquqbuzarlik tushunchasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi amaldagi huquqiy normalar orqali mazmunan yoritib berilgan. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 8-bobi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklarga bag'ishlangan bo'lib, ular huquqbuzarlik tarkibiga muvofiq ajratilgan [6].

O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi 754-XII-son<sup>1</sup> Qonunining 2-moddasiga muvofiq, tabiatni muhofaza qilish obyektlari (yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi, atmosfera havosi) ifloslanishdan, buzilishdan, zararlanshdan, oriqlab ketishdan, vayron bo'lishdan, yo'q bo'lib ketishdan, nooqilona foydalanishdan muhofaza etilishi lozim [7].

Mazkur Qonundan kelib chiqib tahlil qilinsa, ekologik huquqbuzarlik – bu jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasining ekologiya va tabiatni muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari talablarini aybli ravishda buzish natijasida tabiat obyektlarining ifloslanishiga, zararlanshiga, yo'q bo'lib ketishiga yoki ulardan nooqilona foydalanilishiga sabab bo'ladigan, ekologik xavfsizlikka, fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqlariga zarar yetkazadigan g'ayriqonuniy qilmish (harakat yoki harakatsizlik) hisoblanadi. Qonunchilikka muvofiq, ekologiya sohasida sodir etilgan aybli harakat yoki harakatsizlik ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi.

J.T. Xolmo'minovning fikricha, ekologiya sohasida sodir etilgan huquqbuzarlikka nisbatan qo'llaniladigan yuridik javobgarlik tushunchasi bir qator xususiyatlar bilan bog'liq: birinchidan, sodir etilgan ekologik huquqbuzarliklarga nisbatan yuridik javobgarlik huquqiy kategoriya sifatida namoyon bo'ladi va qo'llaniladi; ikkinchidan, uning asosiy maqsadi va mohiyati ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklar, ekologik qonunlarning buzilishiga qarshi kurash hamda ekologik qonunchilik va huquqiy tartibotni ta'minlashdan iborat.

Har qanday huquqbuzarlik, shu jumladan ekologik huquqbuzarlikning tarkibi subyekt, obyekt, obyektiv tomon va subyektiv tomondan iborat.

Ekologik huquqbuzarlikning subyekt sifatida O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga muvofiq ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan paytda o'n olti yoshga to'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek, qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda yuridik shaxslar e'tirof etiladi.

Ekologik huquqbuzarlikning obyekti qonun bilan ifloslanish, kamayish va nobud bo'lishdan muhofaza qilinadigan tabiiy muhit, uning tarkibiy qismlari, shuningdek, holati tabiiy muhit sifatiga bog'liq bo'lgan inson salomatligi hamda moddiy boyliklardan iborat.

Ekologik huquqbuzarlikning obyektiv tomoni huquqbuzarlikning tashqi ifodasi bo'lib, u atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlarini buzuvchi harakat yoki harakatsizlik, ularning oqibatlari hamda ular o'rtasidagi sababiy bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Mazkur huquqbuzarlik faol xatti-harakatlar yoki ekologik qonunchilik talablarini bajarmaslik, ularga rioya qilmaslik shaklida sodir etilishi mumkin.

<sup>1</sup> <https://lex.uz/acts/-107115>



Ekologik huquqbuzarlikning subyektiv tomoni huquqbuzarning sodir etilgan qilmishga va uning oqibatlariga bo'lgan ruhiy munosabatini ifodalaydi. U ayb, motiv, maqsad va manfaatlarni o'z ichiga oladi. Huquqiy adabiyotlarda noqonuniy xatti-harakatlarni belgilovchi subyektiv omillar odatda ijtimoiy, guruh va individual ongning buzilishi kabi ijtimoiy-psixologik omillarni ham qamrab oladi. Ushbu determinantlarni aniqlash noqonuniy xatti-harakatlarning sabablarini individual darajada o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki huquqbuzarlik shaxsning irodasi va ongi orqali sodir etiladi.

Atrof-muhit qonunchiligi jinoyat va fuqarolik qonunlarida nazarda tutilgan aybning barcha shakllarini tan oladi: qasd yoki ehtiyotsizlik. Ekologik huquqiy munosabatlar kontekstida ehtiyotsizlik ko'rinishidagi ayb beparvolik yoki ehtiyotsiz xatti-harakatlarda namoyon bo'ladi.

Aybdorlik qonunga xilof harakat yoki jinoyat uchun yuridik javobgarlikni qo'llashning majburiy sharti hisoblanadi. Shu bois nafaqat shaxsning qasd yoki ehtiyotsizlik shaklidagi aybi, balki qonunga xilof qilmish bilan tabiiy muhitga yetkazilgan zarar o'rtasidagi sababiy bog'liqlik ham isbotlanishi lozim.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ekologiya sohasidagi adabiyotlarni ko'rib chiqish, amaldagi qonun hujjatlarini tahlil qilish metodologiyasi asosida olib borildi. Tahlil jarayonida o'zbek va rus tilidagi manbalardan foydalanildi.

Ma'lumotlarni to'plash jarayonida qonunchilik normalari, ilmiy maqolalar, ekologiya sohasidagi adabiyotlar, vakolatli davlat organlarining hisobotlari va statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. Shuningdek, ayrim davlatlarning ekologik huquqbuzarliklarni ma'muriy qonunchilik asosida tartibga solishdagi o'ziga xos jihatlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan solishtirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ekologik huquqbuzarlik subyektlari har doim ham umumiy ma'muriy qonunchilik subyekti bilan bir xil bo'lmaydi. Jumladan, Rossiya Federatsiyasi hamda Qozog'iston davlatlarining qonunchiligiga muvofiq, atrof-muhitga oid huquqbuzarlikning subyektlari har qanday xo'jalik yurituvchi subyektlar (korxonalar, muassasalar, uyushmalar va boshqa huquqiy tushdagi tashkilotlar), shuningdek, jismoniy shaxslar (fuqarolar) bo'lishi mumkin [17]. Mazkur yondashuv ekologik xavfsizlikni ta'minlashda javobgarlik doirasini keng qamrab olishga xizmat qiladi hamda atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida barcha ishtirokchilarning mas'uliyatini oshirishga imkon yaratadi. Shu jihatdan yuridik shaxslarning ham ekologik huquqbuzarlik subyekti sifatida e'tirof etilishi ekologik qonunchilikning amaliy samaradorligini ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasida ekologik huquqbuzarliklarning oldini olish faqat javobgarlik choralari qo'llash bilangina cheklanib qolmay, balki profilaktika, ekologik monitoring, zamonaviy nazorat texnologiyalarini joriy etish hamda korxonalarda ekologik boshqaruv tizimlarini shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Xususan, ekologik audit, ishlab chiqarish jarayonlarining raqamli monitoringi, ekologik menejment standartlarini qo'llash va korporativ ekologik mas'uliyatni rivojlantirish natijasida tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatish ehtimoli sezilarli darajada kamaymoqda. Natijada davlat organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan hamkorlik mexanizmlari izchil rivojlanmoqda [8].

Bugungi kunda davlat tomonidan bozor iqtisodiyotining rivojlanishi, iqtisodiy salohiyatning oshishiga turtki bo'luvchi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, shuningdek, korxonalar sonining ortib borishi ekologik xavfsizlikni yanada mustahkamlash bo'yicha yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi bilan bir qatorda energiya tejankor texnologiyalar, chiqindilarni qayta ishlash, resurslardan oqilona foydalanish hamda "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini joriy etish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar ekologik barqaror rivojlanishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy ishlab chiqarish korxonalarida ekologik xavfsizlik talablariga mos innovatsion uskunalarning qo'llanilishi atmosfera havosiga chiqariladigan zararli moddalar hajmini kamaytirish, suv va yer resurslaridan samarali foydalanish hamda tabiiy resurslarni asrab-avaylashga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, ekologik qonunchilikni takomillashtirish jarayonida huquqbuzarlik sodir etilganda yetkazilgan zararni qoplash mexanizmlarini yanada samarali tashkil etish, ekologik tovon va ma'muriy javobgarlik institutlarini amaliyot talablariga mos ravishda rivojlantirish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Ya'ni, ekologik huquqbuzarlik natijasida atrof-muhitga yetkazilgan zararni qoplash majburiyati javobgar shaxs tomonidan tegishli jarima summasini to'lash orqali ta'minlanmoqda. Mazkur mexanizm ekologik qonunchilik talablariga rioya etishni rag'batlantirish bilan birga, tabiatga yetkazilgan zararlarni bartaraf etish hamda ekologik muvozanatni tiklashga xizmat qiluvchi iqtisodiy vositalardan biri hisoblanadi.



Hozirgi davrda ko'plab korxonalar atrof-muhitni muhofaza qilish talablariga rioya etish hamda ekologik mas'uliyatni kuchaytirish yo'nalishida faoliyatini takomillashtirib bormoqdalar. Korxonalarda ekologik menejment tizimlarini joriy etish, xalqaro ekologik standartlarga muvofiq sertifikatlash, ishlab chiqarish chiqindilarini kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda ekologik hisobotlarni yuritish amaliyoti tobora kengayib bormoqda. Bunday yondashuv korxonalarning investitsion jozibadorligini oshirish, xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga xizmat qilmoqda [9].

O'zbekiston Respublikasida ham ekologik xavfsizlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar ekologik huquqbuzarliklarning oldini olishning huquqiy va tashkiliy asoslarini yanada mustahkamlamoqda. Xususan, ekologik nazoratning raqamlashtirilishi, davlat ekologik monitoring tizimining takomillashtirilishi, jamoatchilik ekologik nazoratining rivojlantirilishi hamda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlar ushbu sohada ijobiy natijalar berayotganini ko'rsatmoqda. Shu sababli ekologik huquqbuzarlik subyektlarini aniq belgilash, ularning huquq va majburiyatlarini izchil tartibga solish hamda xalqaro tajribaning ilg'or yondashuvlarini milliy qonunchilikka bosqichma-bosqich implementatsiya qilish ekologik xavfsizlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri bo'lib qolmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasining amaldagi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida aynan ekologik huquqbuzarliklarning o'ziga xos jihatidan kelib chiqib, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish qoidalariga rioya etmaganlik bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganliklari uchun yuridik shaxslarning ham ma'muriy javobgarliklarini belgilash lozim. Shuningdek, yuqorida qayd etilganidek, ekologik huquqbuzarliklarda tabiatga yetkazilgan zararni moddiy pul ko'rinishida o'lchash juda murakkab bo'lib, bunday ekologik huquqbuzarliklarni sodir etishni kamaytirish uchun jismoniy va yuridik shaxslar orasida profilaktik tadbirlarni kuchaytirish hamda ekologik nazoratni amalga oshiruvchi tashkilotlarning mas'uliyatini yanada oshirish lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2023. – 80 b.
2. Пакалов Д.С. Экологические правонарушения: структура и причины // Вестник Саратовской государственной юридической академии. – 2012. – № 5 (88). – С. 199–204.
3. Бринчук М.М. Экологическое право: учебник. – 4-е изд., перераб. и доп. – Москва: Эксмо, 2010. – 670 с.
4. Анисимов А.П. Теория и практика юридической ответственности за экологические правонарушения: региональный аспект / А.П. Анисимов, Ю.И. Исакова, Г.С. Працко // Правовой порядок и правовые ценности. – 2024. – Т. 2. – № 1. – С. 26–38. DOI: 10.23947/2949-1843-2024-2-1-26-38.
5. J.T. Xolmo'minov, N.B. Shoimov, O.A. Kamalov, O.J. Xolmo'minov. *Ekologiya huquqi*. – O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014. – 235 bet.
6. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi // URL: <https://lex.uz/acts/-97664>
7. O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrdagi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi 754-XII-son Qonuni // URL: <https://lex.uz/acts/-107115>
8. Пакалов Д.С. Экологические правонарушения: структура и причины // Экологическое право. – Академия Генеральной прокуратуры РФ. – Белгородская область прокуратурасы. – 2014. – № 9. – С. 5–12.
9. G'aniev F.T., Mirzaikromova F. Ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklarning o'ziga xosligi // *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*. – Volume 1, Issue 4. – March 2024. – P. 8–9. – DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10843844>.
10. Нецветаев А.Г. *Экологическое право*. [https://www.e-biblio.ru/book/bib/04\\_pravo/ekolog\\_pravo/posob/index.htm](https://www.e-biblio.ru/book/bib/04_pravo/ekolog_pravo/posob/index.htm)



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 7/1**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>